


Mavzu: Morfologiya, soʻzlarni turkumlarga ajratish

Reja:

1. Soʻzlarni turkumlarga ajratish asoslari
2. Mustaqil soʻz turkumlari
3. Yordamchi soʻz turkumlari
4. Oraliq soʻz turkumlari
5. Xulosa

- 
- Grammatika
  - Sintaksis
  - Morfologiya

Soʻz turkumlarini  
oʻrganadi

Soʻz birikmasi va  
gapni oʻrganadi

## So`z ma`nosi

1. Leksik ma`no (atash ma`nosi, lug`aviy ma`no ham deyiladi)

So`zning biror shaxs, narsa, joy, belgi, miqdor, harakat ma`nolarini bildirishi. Masalan: Olma (meva), talaba (shaxs), bitta (miqdor), keldi (harakat) va hokazo.

2. Grammatik ma`no— so`zning biror turkumga yoki biror bo`lakka mansubligi. Masalan: olma (ot so`z turkumi, bosh kelishikda, birlikda...), keldi (fe'l, o`tgan zamon, III shaxs, birlikda...)

So`z	Leksik ma`nosi	Grammatik ma`nosi
Bizning	shaxs	Olmosh, I shaxs ko`plik, qaratqich kelishigi shaklida, gapda qaratqich aniqlovchi.
bog`da	joy	Ot, o`rin- payt kelishigi shaklida, birlikda, gapda o`rin holi.
qizil	rang	Sifat, oddiy darajada, asliy, gapda aniqlovchi vazifasida.
olmalar	meva	Ot, bosh kelishikda, ko`plikda, gapda ega vazifasida.
Pishibdi	harakat- holat	Fe`l, o`tgan zamonda, aniq nisbatda, gapda fe`l- kesim.

# So`z turkumlari (12 ta)

## Mustaqil so`z turkumlari

6 ta

- 1) ot
- 2) sifat
- 3) son
- 4) olmosh
- 5) fe'l
- 6) ravish

## Yordamchi so`z turkumlari

3 ta

- 1) ko`makchi
- 2) bog`lovchi
- 3) yuklama

## Oraliq so`z turkumlari

3ta

- 1) undov
- 2) taqlid
- 3) modal

# Soʻzlarni turkumlarga ajratish asoslari

## 1. Atash maʼnosiga ega yoki ega emasligiga koʻra:

1) ot- shaxs, joy, narsa maʼnosini beradi

2) sifat – rang, hajm, maza-taʼm, hid, xususiyat maʼnolarini bildiradi.

3) son- miqdor va tartibni bildiradi.

4) olmosh- atash maʼnosi yoʻq, ichi boʻsh soʻzlar.

5) feʼl- harakat- holat maʼnosini beradi.

6) ravish- harakatning belgisini, payt, oʻrin, sabab, daraja kabi maʼnolar ifodalangani

1) koʻmakchi- (kabi, uchun, bilan, misoli, sari, sayin)

2) bogʻlovchi- (ammo, lekin, biroq, negaki, chunki, agar)

3) yuklama- (faqat, xolos, atigi, -a, -ya, -mi, -chi, -gina)

Lugʻaviy maʼno bildirmaydi.

1) undov- (oh, eh, balli, salom, rahmat)

2) taqlid- (taq- tuq, lik, lip, chi- chi, vov- vov)

3) modal- (albatta, afsus, balki, shukur)

Lugʻaviy maʼno bildirmaydi.

## 2. Savol olish- olmasligiga ko`ra.

1) ot- kim? nima?  
qayer?

2) sifat- qanday?  
qanaqa?

3) son- nechta?  
qancha? nechanchi?

4) olmosh- barcha  
savollarni oladi

5) fe'l- nima qilmoq?  
nima bo'lmoq?

6) ravish- qancha?  
nega? qani? nima  
uchun? qachon?

1) ko`makchi

2) bog`lovchi

3) yuklama

1) undov

2) taqlid

3) modal

Savol olmaydi.

Savol olmaydi.

### 3. Gap bo`lagi vazifasida kelish- kelmasligiga ko`ra:

1) ot- ega, qaratqich-  
aniqlovchi, to`ldiruvchi,  
ot- kesim bo`lib keladi.

2) sifat- aniqlovchi, ot-  
kesim.

3) son- aniqlovchi, ot-  
kesim.

4) olmosh- barcha gap  
bo`lagi vazifasida keladi.

5) fe'l- fe'l- kesim va b.

6) ravish- hol, ot- kesim

1) ko`makchi  
2) bog`lovchi  
3) yuklama

**Gap bo`lagi  
vazifasida  
kelmaydi.**

1) undov  
2) taqlid  
3) modal

**Faqat taqlid  
so`zlar aniqlovchi,  
hol, ot- kesim  
bo`lib keladi.**



## 4. Yasalish- yasalmasligiga ko`ra:

1) ot- yasaladi

2) sifat- yasaladi

3) son-

yasalmaydi

4) olmosh-

yasalmaydi

5) fe'l- yasaladi

6) ravish- yasaladi Yasalmaydi

1) ko`makchi

2) bog`lovchi


3) Yuklama

1) undov

2) taqlid

3) Modal

Yasalmaydi



Xulosa qilib aytganda, atash ma'nosiga ega bo'lgan, savol oladigan, gap bo'lagi vazifasida keladigan, yasalish xususiyatiga ega soʻz turkumlari mustaqil soʻz turkumlari deyiladi.